

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

Abdurahmon Jomiy g'azaliyotining mazmun va g'oyasi

Sodiqjon Ro'zmatov

CHDPU 3-kurs talabasi

Ilmiy rahbar: Hikmat Hikmatov

CHDPU adabiyotshinoslik kafedrasi o'qituvchisi

ANNOATATSIYA: Mashhur tojik mutafakkiri, olim, shoir va yozuvchisi Abdurahmon Jomiy 1414-yil Xarjurd dehasi Jom vilotida tug'ilgan. U tojik xalqining 500 yillik adabiyotini turli sohalarida jamlaydi. Jomiy tojik xalqining iftixori bo'lib u yozib qoldirgan asarlar bizgacha yetib kelgan va hozirgacham o'qib boriladi. Shoирning ta'sirli, mazmunli, ko'p hikmatli she'rlari insonning qalbiga yaxshi joylashadi. Uni o'qib o'r ganish, asarlar ma'nosini anglash va boshqalarga o'rgatish talab etiladi. Shoир Alisher Navoiyning ustozি bo'lib, u bilan ko'p savobli ishlar amalga oshirgan, shogirdlariga tarbiya va ta'lim berishgan. Bu ajdodlarning asarlarini o'r ganish orqali biz ham o'z oldimizga quygan maqsadlarimizga erishishimiz mumkin.

Kalit so'zlar: iftixor, maqsad, hikmat, mutafakkir, ajdod, savob, asar, shogird.

Abdurahmon Jomiyning ijodiyotida g'azal asosiy urinni egallaydi. U g'azal yozishda Sa'diy Sheroziy, Xusrav Dehlaviy, Jaloliddin Rumiy, Hofizi Sheroziy va Kamol Hujandiyya ergashgan.

In nazmi tust, Jomiy, yo toza dastai gul,
K-az "Bo'ston"-i Sa'diy tab'i Kamol basta.

Jomiyning g'azallari asosan 7 baytdan bo'lib, turli mavzularni o'z ichiga oladi. Unda zamon tanqidi, ahli din, riyokor shayx va sufiylar haqida ma'lumot berilgan. Quyidagi g'azalda hokimu shohlarga murojat qilib, ularning ayshu ishratda yurganini, bechoralarning holidan bexabarligini aytib o'tadi.

Osudadilo, holi dili zor chi doni?
Xunxorii ushshoqi jiгар xor chi doni?

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

Hargiz naxalida ba kafi poyi tu xore,
Ozurdagii sinayi afgor chi doni?
Shab to ba sahar xufta ba xilvatgahi nozi,
Bexobii in didayi bedor chi doni?

Boshqa g'azalida amaldorlarni qattiq mazammat qilib, takidlaydiki bu "nomard" zamon sizlarni mansabdar qilgan. Ammo sizlar yomon axloq sohibisiz. Hechki bu zamonningadolatsizligidan rozi emas.

G'arra mashav, ki xoja ba neki sitoyadat,
Badmardii zamona turo nekmard kard.
Gar kard xun dilam, chu zabon az suxan bubast,
Bo u kiro majoli suxan, har chi kard, kard.

Shoir bilardiki shohning darborida bir qancha qallob odamlar to'planib, ayshu ishrat bilan mashg'ul bo'ladi. Ular bir qancha davlat masalalarini yechida qiyinchilikga uchraydilar. Jomiy ularni qarg'a va jug'zga uxshatadi:

Ba qasri ishratu ayvoni ayshi shohon bin,
Ki zog' nag'masaro gashtu jug'z qofiyasanj.

Jomiy yuqori tasavvuf ahlidandir. U o'z hayotida ko'zatib boradiki ko'plab shayxlaru zohidlar va riyokor sufiylar ko'rinishida xudojuy ammo amalda firibgar va benomusdir, molu mulk uchun odamlarni aldaydilar. Shoir ularni urgimchakka uxshatadi:

Shayxi shuhratjuy ra'noro tamosho kun, ki chun
Dar libosi xos zohir shud firebi omro,
Mekashad dome payi saydi magas chun ankabut,
Shohboze ku, ki az ham barkanad in domro.

Bu she'nda shohboz shoирning o'zi bo'lib yolg'on va nayrang pardasini yechib ularning asl siyratini ko'rsatadi. U odamlarni ulardan uzoq bo'lishi uchun da'vat qiladi va ularni xuddi yomon devlarga uxshatadi. Shoирning aqidasiga ko'ra inson doimo yaxshilar bilan birga bo'lishni aytadi:

Dilo, zi qaydi harifona bexirad bigrez,
Tu murg'i ziraki, az domi devu dad bigrez.

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

Qabuli suhbatи nekon agar nayi, bore

Yake bikush, zi hamsuhbatoni bad bigrez.

Jomiy boy hayot tajribaga ega edi. U insonni tug'ri yo'lga hidoyat qildi. Jomiy quyidagi g'azalida bechoralarni zolimlardan himoya qiladi va zolimlarga qaratib aytadi: " Qalbi sof odamlarga ozor berish va xalqdan tama' qilish xiradsizlar ishidir. Har narsani agar o'zingizga ravo ko'rmasangiz, boshqalarga ham ravo ko'rmang chukni kambag'allarning qalbi shisha kabi nozikdur, agar u shisha sinsa tiklab bo'lmaydi".

Ey dar in koxi amoni, ba g'amu shodi band,

Bandai nafsi xudi, da'veii ozodi chand.

Lab ba har tu'ma mayoloy, ki dandon shikanad,

Bar sari xoki furumoya zi poludavu qand.

Sangi ozor mazan bar dili arbobi safo,

K-omad oson shikani shishavu mushkil payvand?

Nopisandida fitad tavri tu, Jomiy hamaro

Har chi bar xud mapisandi, digaron mapisand.

Jomiy odamlarni insoniylik sharafini saqlashga da'vat etadi. U xushomadguy, ishdan qochadigan va muftxur kishilarga nafrat bilan qaraydi.

REFERENCES

1. Абдуллоев А. Зоҳири Форёбӣ. Душанбе, 1974; Адабити форси тоҷик дар нимаи аввали асри 11, Душанбе, 1979.
2. Акбаров Юсуф, Талаби ҳаёт ва қисмати адабиёт. Душанбе 1977.
3. Амонов Раҷаб, Таърихи адабиёти советии тоҷик, Душанбе, 1982.